




Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2023 yil yanvar oyida

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmahilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **417,5 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **34,6 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,2 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar oyida)

**417,5 mlrd.
so'm**

100,2 %

**34,6 mlrd.
so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	417,5	100,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	27,3	123,5
Moliyaviy xizmatlar	144,3	92,3
Transport xizmatlari	54,1	101,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	51,1	99,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	9,1	95,4
Savdo xizmatlari	101,5	99,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	11,1	99,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	11,8	125,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	8,9	99,7
Ijara xizmatlari	6,9	88,3
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	10,3	97,9
Shaxsiy xizmatlar	8,7	101,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,2	108,1
Boshqa xizmatlar	20,3	151,8

2023- yil yanvar


Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich



Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2023- yilning yanvar oyida ularning ulushi 34,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (24,3 %), transport xizmatlari (12,9 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (6,5 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz kamayish qayd etilib, ularning ulushi **0,8 %** ga yetdi

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiylaj hajmining **38,8 %** ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatkichga ega bo'lgan – **0,7 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.


2023- yilning yanvar oyida yuqori o'sish ta'lif xizmatlarida (125,3 %), aloqa xizmatlarida (123,5 %) qayd etildi.

Buning sababi, korxona va tashkilotlar faoliyatini tiklash bilan bir qatorda koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish uchun qo'yilgan cheklovlarni yumshatilishi bilan bog'liq.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlaringin taqqoslanishi, % da




Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – 122,4 %.

Boshqa xizmatlar esa ushbu davrda ko'tarilish kuzatilgan – 137,7 %.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

**Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da
(2023- yil yanvar oyida)**



2023- yilning yanvar oyida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Shirin shahar (102,5 %), Boyovut (103,0 %), Oqoltin (102,4 %) tumanlarga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz o'sish sur'ati Sardoba (101,5 %) tumanida qayd etildi.

Transport xizmatlarining ko'rsatilgan eng yuqori ulush ko'rsatkichlari Guliston (24,0 %) va Yangiyer (16,0 %) shaharlarda, Sirdaryo (20,4 %) tumanga to'g'ri keldi.

Eng past ulush ko'rsatkichi Shirin shahrida qayd etildi (1,6 %).

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar oyida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **24,3 %** ni tashkil etib, bu esa **101,5 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning hajmi 90,3 mlrd. so'mga yoki umumiylajmi hajmning **23,6 %** ga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

90,3

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

101,5

108,5

O'sish sur'ati, % da

99,0

2022- y. yanvar




2023 y. yanvar

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtidan uch qismini, aniqrog'i **72,3 %** ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2023- yil yanvar oyida)**




Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo xizmatlari ulushi **71,8 %** ni tashkil etgan.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

**Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2023- yilning yanvar oyida)**



■ Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

■ Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Oqoltin (**80,2 %**) Boyovut (**73,8 %**) va Sardoba tumanlarida (**67,9 %**), Yangiyer shahrida (**73,5 %**) kuzatilmoqda.



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida chakana savdo ulushi Mirzaobod tumanlarida maksimal darajaga yetgan – **79,0 %**.



Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakana savdo ulushi **45,8 %** ni tashkil etdi. Biroq, bu tumanda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – **48,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida Sayxunobod tumanida Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdo ulushi **5,3 %** ni tashkil etdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Oqoltin (**10,2 %**), Xovos (**8,6 %**), Guliston (**9,1 %**), Sardoba (**6,7 %**) tumanlarida qayd etildi.



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Oqoltin tumaniga to'g'ri kelgan – **10,2 %**.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar oyida)

2023- yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi **144,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar oyida ularning hajmi **148,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **34,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning ulushi **38,8 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **4,1** mlrd. so'mga kamayish kuzatildi.

2023- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **92,3 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida ularning o'sish sur'ati **138,6 %** ni tashkil etgan.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **4,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **2,4 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2022- yil yanvar – dekabr oylarida)**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **95,1 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **3,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,8 %**.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2023- yilning yanvar oyida)

2023 - yilning yanvar - oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **27,3 mlrd. so'm** darajasida belgilandi.

2022- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **123,5 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:


2022- yilning yanvar oyida ushbu xizmat turi hajmi **21,1 mlrd. so'm** yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiylajmiy hajmining **5,5 %** ga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **122,4 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi


2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar




2023- yilning yanvar oyida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **11,8 mlrd. soʼmga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi tashkil etdi **2,8 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan oʼsish surʼati **90,3 %** ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning yanvar oyida ta'lif sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (**0,7** mlrd. so'm), Mirzaobod (**0,2** mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (**8,7** mlrd. so'm) va Yangiyer (**1,5** mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar oyida)



2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

8,6 mlrd.
so'm

2022- y.
yanvar

9,1 mlrd.
so'm

2023- y.
Yanvar

Xizmatlar hajmi

99,4 %

95,4 %



O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar oyiga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **0,5** mlrd. so'mga ortgan.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2023- y. yanvar

2022- y. yanvar



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiylaj hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,4 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar oyida ushbu xizmat turlarining ulushi **91,0 %** ni tashkil etgan.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2023- y. yanvar

8,9
mlrd. so'm
2,1 %
99,7 %



Xizmatlar
hajmi

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi


O'sish
sur'ati

2022- y. yanvar

7,9
mlrd. so'm

2,1 %

104,6 %



2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar oyida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Sirdaryo viloyati	417,5	100,2	114,8
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	185,7	90,3	118,7
Shirin	5,9	101,9	112,1
Yangiyer	30,6	91,1	120,7
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	33,6	141,4	105,9
Guliston	18,3	108,0	114,5
Mirzaobod	18,7	107,9	112,5
Oqoltin	13,0	108,2	115,8
Sardoba	15,7	108,1	114,5
Sayxunobod	18,3	114,3	111,9
Sirdaryo	57,5	110,5	104,8
Xovos	20,2	107,3	116,7


2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar oyida)



2023- yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **44,5 %** (2022- yilning yanvar oyida – **49,4 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **1,4 %** (2022- yilning yanvar oyida – **1,4 %**) qayd etildi.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmnning o'sishi



O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **470,3** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar – dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **98,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 440,2 ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar – dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 112,7 % da qayd etilgan.

2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**



2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

**2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,4 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **2,1 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,1 %** ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **2,1 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 50,4

**Boshqa turdag'i
xizmatlar – 31,7**

**Yashash va ovqatlanish
– 8,8**

Tashish va saqlash – 4,9

Axborot va aloqa – 2,1

Sog'liqni saqlash – 2,1


2023- yil yanvar

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2023- yil yanvar oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **51,0** % ni tashkil etdi.

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **79,4** % ga to'g'ri keldi.

